



“Zarbulmasal” kinoyaviy obrazlar gultoji sifatida

Qurbonova Sarvinoz Gulboyevna

sarvinozqurbonova.2002@gmail.com

+998912280727

Annotatsiya. Ushbu maqolada Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi obrazlarning turli xil ma’nolari va qo’llanilishdagi farqlari o’rganilgan va ularning bir-biri bilan bog’liqligi tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье изучаются различные значения и различия в использовании образов в “Зарбулмасале” Гульхани, анализируется их взаимосвязь.

Annotation. This article examines the various meanings and differences in the use of images in Gulkhani's Zarbulmasala and analyzes their relationship.

Tayanch soʻzlar: obraz, majoziy, kinoya, Zarbulmasal, maqol, masal.

Ключевые слова: образ, метафора, ирония, метафора, пословица, притча.

Key words: image, metaphor, irony, metaphor, proverb, parable.

Obraz badiiy asarning oʻziga xos xususiyatidir. Masalda, maymun, tuyay, boʻtaloq singari hayvonlar, toshbaqa, chayon kabi jonivorlarning majoziy-kinoyaviy obrazlari maʼlum bir ijtimoiy maʼnoni bildiradi. Masalan, toshbaqa bilan Chayon obrazida feʼl-atvori bir-biriga zid kishilar ustida bahs yuritgan yozuvchi, toshbaqaning harakati orqali bir-biriga yordam, doʻstlik, hamkorlik, mehr-shafqat singari insoniy tuygʻu va fazilatlarni maʼqullasa, Chayonning nojoʻya qilmishida insoniy qiyofasini yoʻqotgan, kishilik jamiyati uchun tamomila zararli boʻlgan yaramas feʼl-atvorni fosh etgan. Gulxaniy bunday kishilardan nafratlanib, doʻst bilan dushmani ajrata bilish, dushmanga oʻz vaqtida qaqshatqich zarba berishga chaqiradi.



Insonparvar kishi sifatida tasvirlangan toshbaqa tomonidan cho'ktirib yuborilgan Chayonning halokati misolida masalning g'oyaviy mazmuni ochiladi. Gulxaniy yovuz xoinlar mahv etilishi muqarrar degan xulosa chiqaradi.

“Zarbulmasal” asaridagi obrazlarning bir-birlari bilan munosabati, o‘zaro munozaralar va suhbatlar yordamida asarning asosiy mazmuni yanada teran anglashiladi. Asardagi badiiy obrazlar o‘z xarakter va tabiatiga mos ravishda 3 xil turdadir:

1. Qushlar obrazlari.
2. Hayvon-hasharot obrazlari.
3. Kishilar obrazlari.

Asardagi asosiy ahamiyatga ega obraz bu qushlar bo‘lib, qolgan obrazlar, ya’ni, hayvon-hasharot va kishi obrazlari esa ularning bir-birlari bilan bo‘lgan suhbatda keltirilgan turli xil naql va rivoyatlarda keltirib o‘tiladi.

Gulxaniy asaridagi asosiy obrazlar o‘zining biologik xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birga o‘zida insonlarga xos tabiatni ham namoyon etadilar. Misol uchun, boyqushlarning buzuq chordevorga o‘chligi, uyida sichqon suyagidan boshqa narsasi yo‘qligi, kunduzi ko‘rinmay yurishi va suvdan uzoqroq turishi ularning tabiiy xususiyati bo‘lsa, odamlar kabi aloqaga kirishishi, sheva yordamida turli maqol, matal, masallar keltirishi va hikmat, rivoyatlarga asosan ish olib borishi odamlarga xos belgilarni namoyon qiladi. Bu esa obrazlar yordamida ularning hayotdagi prototiplarini tez anglash imkonini beradi. Qushlarning turi va tabiatiga xos belgilar asosida esa hayotdagi mavjud shaxsning individual xususiyatlari, fe‘l-atvoriga ishoralar anglashiladi. Misol uchun, Ko‘rqushning ko‘zi ko‘rmasligi, Kordonning novchaligi, Kuykanakning gapga ustaligi, Boyqushning xasisligi kabilarda kinoya va qochirimlarni sezish mumkin.

Qushlarning turi va nomlari juda ham ko‘p. Yapaloqqush va Boyo‘g‘li qudalar sifatida, Ko‘rqush sovchi, Kuykanak-xizmatkor, kuyov Kulankir sulton, kelin esa Kunushbonu oyim deya nomlanishi Gulxaniyning tipiklashtirish



mahoratini ko'rsatadi. Qushlarni odamlarning o'rniga ko'chirish usuli ham o'zgacha va tabiiyligi bilan ajralib turadi. Ota qush – Boyo'g'li, onasi esa – Boyqush, qizi – Boyqiz deb nomlangan. Yapaloqqush – Yapaloqbibi, uning o'g'li esa Kulongir sulton deyiladi.

Qushlarning bu tariqa nomlanishi uning tabiiyligini ta'minlaydi va asarga o'zgacha ruh bag'ishlaydi. Asarni o'qiyotgan odam obrazlarning qushlar ekanligini ham unutadi va ularning suhbatini xuddi odamlarnikidek qabul qiladi. Asarning ayrim nashrlarida "Kuykanak"ni – Kuygung, "Kunushbonu (Quyoshbonu)"ni –Gunashbonu singari buzib ko'rsatganlarini ham ko'rish mumkin. Bundan tashqari, asarda Maymun, Teva (tuya), Bo'taloq, Tulki, Sangpo'sht (Toshbaqa), Chayon kabi hayvon-hasharot obrazlari, Xolvoqi misgar, Yodgor po'stindo'z, duradgor, Yahyoxo'ja kotibdek kishi obrazlari ham keltirilgan. Asardagi har bir obraz orqali qaysidir jihatni yoritib berish ko'zda tutilgan. Gulxaniy insondagi turli xil xislatlarni, davr muhitini va boshqa shu kabi jarayonlarni tasvirlashda majoziy tasvirlash usullardan, kinoya va qochirimlardan mahorat bilan foydalangan. Aslida asarda siyosiy vaziyatlar aks ettirilgan bo'lsa-da, o'quvchini zeriktirmaydi. Xalq og'zaki ijodi bilan uzviy bog'liqlik ham asarning yanada qiziqarli va tushunarli bo'lishini ta'minlagan.

Gulxaniy Yapaloqqush bilan Boyo'g'lining bir-biriga quda bo'lish voqeasini bayon qilish orqali o'sha zamon uchun xarakter voqea-hodisalarni va ularga o'z munosabatini aks ettiradi. Yozuvchi asardagi Yapaloqqush, Boyo'g'li, Ko'rqush, Hudhud, Kulonkir sulton, Sho'ranul va Kordonlarning bir-biriga aytgan masallari, maqollari, hikoyalari orqali asarning g'oyaviy mazmunini ochadi. "Zarbulmasal" ning personajlari, asosan, qushlarning kinoyaviy-allegorik obrazlaridan iboratdir. O'z davr voqealarini majoziy usulda badiiy ifoda etgan axloqiy-pandnoma va tanqidiy-hajviy yo'nalishdagi "Zarbulmasal" asari Gulxaniyga favqulodda shuhrat keltirdi. Unda ijtimoiy hayot muammolari, turli toifadagi odamlar o'rtasidagi munosabatlar, xalq turmush tarzi va udumlari haqida majoziy uslubda so'z yuritiladi. Insonga xos xususiyatlar boshqa jonli va jonsiz narsalarga ko'chirib tasvirlansa, majoziy asar deyiladi.



Gulxaniy ham, qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit qabilida qushlar misolida o‘z davri voqeligi manzaralarini tasvirlaydi. Toj-u taxt talashlari, mamlakat urushlar natijasida yurt vayron, xalq xarob bo‘lgan. Buxoro va Qo‘qon xonliklari o‘rtasidagi munosabat yomon bo‘lib, ular o‘zaro urishib yurganlari uchun ham asarda Buxoro go‘yoki vayronalarga boy muzofot singari tasvirlansa-da, Qo‘qon ham undan obod emas edi. Adib aytmoqchi, xonning atrofini Boyo‘g‘li, Yapaloqqush, Ko‘rqush, Kordon, Kulonkir sulton kabi yomon odamlar o‘rab olgan. “Holo, bu turg‘onlarning navola do‘stlari, piyola hariflari, taom yemakka hozir, maslahatga aqli qosir”. Bu ketishda mamlakat vayronaga, shoh uning ustidagi Boyo‘g‘liga aylanib qolishi hech gap emas. Gulxaniyning yirtqich va asosan, tunda ov qiladigan qushlarni o‘z asariga qahramon qilib olishida nozik ishora mavjud. Shuning uchun Ko‘rqush tilidan nasihat qiladi: “Ulug‘ni borgohinda xiradmandi donish va aqli xiradi bohush har qancha ko‘b bo‘lsa ham, oz bo‘lur. Xususan, podshohi odilg‘a uch toifadin guzir yo‘qdur: avval, odami boamalki, podshohning oxiratlik asbobini taraddudida bo‘lsa. Ikkinchi vaziri sohibi ra‘ykim, podshohning dunyolik yarog‘ini tarabdudida bo‘lsa. Uchinchi, munshiyi rostnavis, qalamzanu nigohdoru shamshirzan bo‘lsa”.

“Zarbulmasal” majoziy asar bo‘lishiga qaramay, unda XIX asr muhiti voqealari tasvirlanadi. Yozuvchi bu asarida o‘zaro o‘sha davrda bo‘lib o‘tayotgan urushlarning dahshatli oqibatlarini ochib tashlaydi. Asarda bu kabi urushlarning el-yurtga keltirgan qashshoqlik va xarobaliliklari xarakterli tafsilot va imo-ishoralarda yorqin aks ettirilgan. Yapaloqqush o‘zaro to‘qnashuvlarda boyligi qo‘ldan ketgan, qo‘rg‘oni buzilgan, Gulxaniy aytganidek, “oti ulug‘, suprasi quruq” boylarning kinoyaviy obrazidir. Buni biz dastlab uning xatti-harakatlarida va atrofdagilar bilan munosabatida kuzatamiz, chunonchi, u o‘g‘liga Kulonkir sulton deb balandparvoz nom qo‘yadi. Yoki Boyo‘g‘liga quda bo‘lmoqchi bo‘ladi, o‘zini katta tutib “Har qanchalik qalin bo‘lsa topilur”, deb maqtanadi. Yapaloqqushning tushkunlikka uchragan “usti yaltiroq, ichi qaltiroq” boylarning kinoyaviy obrazi ekanligi, atrofdagilar, jumladan, unga qarshi qo‘yilgan Ko‘rqush bilan



muomalasida ham yaqqol ko‘rinadi: Ko‘rqush sovchilikka ketayotganida Yapaloqning maqtanchoqligiga qarshi “Bor maqtansa – topilur, yo‘q maqtansa – chopilur”, “Chumchuq semirsa botmon bo‘lurmi?” kabi maqollarni keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumaxo‘ja N, Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. “Noshir”, 2019. 452 bet.
2. Orzibekov R. O‘zbek adabiyoti tarixi. –T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 670 bet.
3. Hamidova M. Bolalar adabiyoti. Ma’ruzalar matni. Namangan, 2017
4. Шомақсудов Ш. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. Т., 1990.